

**MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA LUG'AT BOYLIGINI
RIVOJLANTIRISHDA KONTEKST ASOSIDAGI YONDASHUVNING
O'RNI VA SAMARADORLIGI**

Chirchiq davlat pedagogika universitetining tayanch doktoranti

G'anibayeva Bayyan Sharipbay qizi

ORCID: 0009-0007-8936-1302

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug'at boyligini oshirishda o'qish va yozishning o'rni, ularning samaradorligi hamda og'zaki nutq bilan solishtirilgan afzallik va kamchiliklari tahlil etilgan. Ayniqsa, kontekst orqali so'z o'rgatish masalasi keng yoritilib, o'quv konteksti va tabiiy kontekst tushunchalari izohlangan. Tabiiy kontekstning cheklovlari ko'rsatilib, uni faqatgina samarali usul sifatida emas, balki qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qarash lozimligi ta'kidlangan. Maqolada Matchonov Safo va boshqa olimlar tadqiqotlariga tayanib, ona tili darslarida fe'llarning cheklangan qo'llanilishi muammo sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, maktabda lug'at ustida ishlashning to'rt asosiy yo'nalishi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lug'at boyligi, og'zaki nutq, kontekst, o'quv konteksti, tabiiy kontekst, so'z o'rgatish metodikasi, faol va passiv lug'at, nutqiy rivojlanish, maktab ta'limi.

Аннотация: В данной статье проанализированы роль чтения и письма в обогащении словарного запаса, их эффективность, а также преимущества и недостатки по сравнению с устной речью. Особое внимание уделено обучению лексике через контекст, раскрыты понятия учебного и естественного контекста. Показаны ограничения естественного контекста, и подчеркивается необходимость его использования как вспомогательного средства, а не единственного метода. С опорой на исследования Сафа Матчинова и других ученых указана проблема ограниченного использования глаголов на уроках родного языка. Также изложены четыре основных

направления методики работы над словарем в школьном обучении.

Ключевые слова: словарный запас, устная речь, контекст, учебный контекст, естественный контекст, методика обучения лексике, активный и пассивный словарь, развитие речи, школьное образование.

Annotation: This article analyzes the role of reading and writing in vocabulary development, their effectiveness, and the advantages and disadvantages compared to spoken language. Special attention is given to vocabulary teaching through context, with definitions of educational and natural context. The limitations of natural context are discussed, emphasizing the need to use it as a supporting tool rather than the primary method. Based on the research of Safo Matchonov and other scholars, the issue of limited verb usage in native language lessons is highlighted. The article also outlines four main directions in vocabulary teaching methodology within the school curriculum.

Keywords: vocabulary development, spoken language, context, educational context, natural context, vocabulary teaching methodology, active and passive vocabulary, speech development, school education.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining leksik ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim va dolzarb masaladir. Darsga qo'yiladigan asosiy vazifalar ham: bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning lug'at boyligini oshirish ta'lim va ta'rbiyada o'z mohiyatiga ega. Lug'at boyligi yetarli bo'lgan o'quvchilar dadil va nutqi ravon bo'ladi.

Lekin dars davomida so'zlarning hammasini o'quvchilarga o'rgatib bo'lmaydi shuning uchun olimlarning tadqiqotlari (Isabel L. Beck, Margaret G. McKeown, va Linda Kucan) va pedagogik zaruriyatga asoslanib so'zlarni 3-guruhga ajratamiz.

1. Oddiy(kundalik) so'zlar. Kundalik hayotda tez-tez qo'llanadigan, asosiy muloqot ehtiyojini qondiradigan so'zlar kiradi. Masalan: kitob, non, oq, uy, kel, o'tir. Ular bolalar uchun ham kattalar uchun ham tanish va semantik jihatdan

oddiy, aniq va oson o'zlashtiriladigan birliklar sanaladi. Bu guruhdagi so'zlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy lug'at bazasini quraydi.

2. Adabiy yoki akademik so'zlar yoki yuqori chastotali umumiy o'quv so'zlari. Bu guruhdagi so'zlar dars jarayonida va o'quv faoliyatida ko'p uchraydi. Shu bilan birga bu guruhdagi so'zlar kundalik hayotda ham foydalaniladi. Bu so'zlar ta'lim jarayonida juda muhimdir, ammo kundalik hayotda ham aktiv lug'at tarkibiga kirgizsak o'quvchilarning til imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatini yaratgan bo'lardik. Bu so'zlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, matn mazmunini yaxshi tushinishini va o'z fikrini to'laqonli, ilmiy asosda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan: tahlil qilmoq, ifodalamoq, taqqoslamoq, sabab, oqibat, rivojlanmiq.

3. Maxsus terminlar. Termin so'zlar yoki maxsus so'zlar ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lib, faqat shu soha vakillari tomonidan keng qo'llaniladi. Bu guruhdagi so'zlar o'quvchilarning fanni tushinishi va anglashini osonlashtiradi va ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. Masalan, matematika darsida: perimenter, kasr, yig'indi. Asosiy termin so'zlar yuqori sinfga o'tganda o'rgatila boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning leksik ko'nikmasini rivojlantirish va tushinish qobiliyatini shakllantirish uchun adabiy (akademik) so'zlarni o'rgatish juda muhimdir. Bu so'zlar o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

XX asr boshlaridan boshlab ingliz olimi Thorndike so'zlarni kontekstda o'rganish lug'at boyligini oshirishning eng samari usuli ekanligi ta'kidlagan. Bu fikrni zamonaviy tadqiqotchilar ham Nagy, W.E. va Herman, P.A., Anderson, R.C. maqolasida "kontekstdan so'zlarni tasodifiy o'rganish lug'at boyligining katta qismini tashkil qiladi"¹- deb ta'kidlangan.

O'qish orqali lug'at boyligini oshirish eng samarali usullardan biri. Lekin zamonaviy olimlar shuni ta'kidlaydiki, og'zaki nutqda uchraydigan so'zlarning aksariyati bolaga tanish bo'ladi va maktab yoshida o'quvchilar yozish va o'qish orqali lug'at boyligini rivojlantirishga o'tadi. Yozish va o'qish orqali o'rgatish,

¹ Nagy, W.E. va Herman, P.A., Anderson, R.C. "Learning word from context" (1985)

<https://scientific-jl.com/>

og'zaki o'rgatishdan ko'ra samarasizroq. Chunki, og'zaki nutqda vizual kontakt, intonatsiya va mimika o'rnatiladi. Shu boisdan ham o'quvchilarga yozish va o'qish orqali so'zlarni o'rgatish sekin va cheklangan darajada yuz beradi.

Kontekst atamasi lug'at o'rgatishda ikki holatni anglatadi:

1. O'quv konteksti- yangi so'zning ma'nosini tushuntirish uchun tuzilgan matn, gap.
2. Tabiiy kontekst-muloqot davomida tabiiy uchraydigan matnlar.²

Tabiiy kontekst orqali so'z o'rgatish samarali hisoblanmaydi, chunki o'qituvchi so'zlarga emas, mazmunga va matndagi voqea hodisaga ko'piroq e'tibor qaratadi va yangi so'zlar yetarli darajada matnda uchramagani va takrorlanmagani uchun esda qolmaydi. Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo'ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora ustozlarning tadqiqoti ham bu ma'lumotni tasdiqlashadi. Unda "Ona tili darslari o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu yuzasidan so'z toptirishda, birikma yoki gaplar tuzdirishda keltirilgan misollardagi fe'llarga e'tibor bermaydi. O'quvchilar kundalik hayotda ishlatadigan *keldi, ketdi, uxladi, o'tirdi, gapirdi* kabi fe'llar bilan cheklanib qolmoqdalar"³ - deb ta'kidlashgan. Bundan ko'ribnib turibdiki, tabiiy kontekst orqali o'rganishning ham kamchilik ta'raflariga duch kelamiz. Lekin bu lug'at o'rgatishning eng samarali yo'li ekanligini inkor eta olmaydi. O'quvchilar o'qish orqali ham lug'atini boyitib bora olmasligi mumkin. Chunki o'quvchi kontekstdagi so'zlarni tog'ri anglay olmasligi, kontekstdan ham notog'ri xulosa chiqarishi, so'zni bir necha bor takrorlamasligi va tushinish darajasi past bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek o'qish orqali lug'at sekin va tasodifiy o'rganiladi. Kontekst yordamida tushuntirish, mashqlar, suhbat va izohli lug'atlar asosida o'rgatish samarali natija beradi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi 4 asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi.

1. Bolalar lug'atidagi yangi so'zlarning ma'nolarini o'zlashtirish.

² Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction (2nd ed.). New York: Guilford Press. (2013).

³ Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo'ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora "Ona tilini o'qitish metodikasi"-500-b. Chirchiq – 2020

<https://scientific-jl.com/>

2. O'quvchilar lug'atida aniqlik kiritish. Bunda so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari (omonim, antonym, sinonim va paronimlar) ni o'rgatish samara beradi.

3. Nutqdagi nafaol so'zlarni faol lug'atga o'tqazish.

4. Adabiy tilda va og'zaki nutqda ishlatilmaydigan dealktga, argon, jargon so'zlarga, oddiy so'z va iboralarni aktiv lug'atdan passiv lug'atga o'tqazish.⁴

Buning hammasi o'qituvchining kichik yoshli o'quvchilarda lingvistik lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko'rishini taqozo qiladi. Bu tizim uchun, avvalo, lug'atdan foydalanish murakkab ko'nikmasining tarkibiy ishlari (operatsiyalari) bo'lmish ko'nikmalar sirasini belgilab olish lozim. Lug'atdan foydalanishga doir elementar ko'nikmalar quyidagilar:

1. Darsliklarga yordamchi lug'atlardan foydalanish.
2. Kirish maqolasi matnini diqqat bilan o'qib chiqish.
3. Lug'atning nomlanishiga qarab tavsiflanadigan til birligini aniqlash.
4. Alifboli so'z ko'rsatkichi bilan ishlash.
5. Lug'at tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
6. Lug'at maqolasi tuzilishi rejasini tuzish va yodda saqlash.
7. Shartli belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar bilan ishlash.
8. Lug'atlar bilan ishlashda o'qish-qarab chiqish va o'qish-izlashdan foydalanish.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

1. Lug'atning nomini.
2. Lug'atning muallifi, muharririni.
3. Nashriyoti va nashr qilingan yilini.
4. Lug'atning turini.
5. Lug'atning vazifasini.

⁴ Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yo'ldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora "Ona tilini o'qitish metodikasi"-500-b. Chirchiq – 2020

6. Lugʻatda soʻzlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganini.⁵

Lugʻat boyligini oshirishda oʻqish va yozish muhim vosita boʻlsa-da, ularning samaradorligi sekin va tasodifiy boʻlishi mumkin. Tabiiy kontekst orqali oʻrgatish esa oʻziga xos afzalliklarga ega boʻlsa-da, doim ham yetarli emas. Shu boisdan kontekst asosida tushuntirish, mashq, suhbat va izohli lugʻatlar orqali soʻz oʻrgatish usullari birgalikda qoʻllanilishi lozim. Maktab taʼlimida lugʻat ustida tizimli ishlash uchun bolalarning lugʻat boyligini kengaytirish, aniqlik kiritish, nafaol soʻzlarni faol holatga oʻtkazish hamda adabiy tilga xos boʻlmagan soʻzlarni passiv lugʻatga oʻtkazish zarur. Faqat bitta usulga tayanmasdan, turli metodik yondashuvlarni uygʻunlashtirish orqali oʻquvchilarning lugʻaviy salohiyatini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nagy, W.E. va Herman, P.A, Anderson, R.C. “Learning word from context” (1985)
2. Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction (2nd ed.). New York: Guilford Press. (2013).
3. Matchonov Safo, Bakiyeva Hilola, Gulyamova Xolida, Yoʻldosheva Sharofat, Xolboyeva Gulnora “Ona tilini oʻqitish metodikasi”-500-b. Chirchiq – 2020
4. F.Safarov “Boshlangʻich sinflarda lingvistik oʻquv lugʻatlaridan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish usullari” Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 3 № 2 (2022) / ISSN 2181-1415-129b.2022y

⁵ F.Safarov “Boshlangʻich sinflarda lingvistik oʻquv lugʻatlaridan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish usullari” Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 3 № 2 (2022) / ISSN 2181-1415-129b.2022y

<https://scientific-jl.com/>